

**IJTIMOYIY MUNOSABATNING O‘ZBEK ISMLARIDA AKS ETISHI****KADIROVA Xurshida Batirovna**

ToshDO‘TAU O‘zbek tili ta’limi fakulteti

O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’limi kafedrasida dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi<https://doi.org/10.5281/zenodo.7671628>**ANNOTATSIYA**

*Ism tanlashda turli maqsad va niyatlar, ijtimoiy, madaniy qadriyatlar, urf-odatlar katta rol o‘ynaydi. Biroq bu madaniy tadbir mantiq asosida amalga oshmas ekan, millatning shaxs nomlari ibtidoiy mazmun-mohiyatli, mantiqsiz shakli shamoyilga moyil bo‘lib qolaveradi. Maqolada o‘zbeklarning farzandlarga bo‘lgan 3 xil munosabati oqibatida qo‘yilgan ismlar tahlilga tortilgan. Xulosa o‘rnida millat onngini bunday qusurlardan xalos etish siyosiy darajaga ko‘tarish kerakligi ayilgan.*

**Kalit so‘zlar:** ism, gender munosabat, oldingi farzand, oxirgi farzand, birinchi farzand.

**АННОТАЦИЯ**

*Большую роль в выборе имени играют различные цели и намерения, социальные и культурные ценности, традиции. Однако до тех пор, пока эта культурная деятельность не будет осуществляться на основе логики, личные имена нации будут оставаться склонными к примитивному содержанию и нелогичным формам и формам. В статье анализируются имена, данные узбеками в результате разного отношения к детям. Вместо заключения говорится о том, что необходимо поднять сознание нации с таких пороков на политический уровень.*

**Ключевые слова:** имя, родство полов, предыдущий ребенок, последний ребенок, первый ребенок.

**KIRISH (Introduction)**

O‘zbek ismlari turli tomondan o‘rganilib ularni sayqallash, tahrirlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoldi. Zero, millatning go‘zal amallari, jahon oynasidagi harakatlari ismi bilan monand bo‘lishi katta ahamiyatga ega. O‘zbeklarning ism tanlashi ko‘p jihatdan farzandga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqadi. Aksariyat hollarda bu o‘gil yoki qizga bo‘lgan munosabatdan paydo bo‘lgan qarashlardir.

Ma’lumki, gender munosabat jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida



namoyon bo'ladigan ijtimoiy hodisadir. Farzand tug'ilganda oiladagi gender munosabat ism tanlashda ham ahamiyati katta. Bu inson jinsining ijtimoiy-madaniy jihatini ifoda etuvchi tushuncha ekan, uning ismlarda aks etishi muqarrar. Oiladagi turmush tarzini yengillatuvchi jins – erkak va quvuch baxsh etuvchi qiz muvozanati ijtimoiy shart-sharoitlar tufayli buziladi va oxir oqibat ism tanlashda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Oilada qiz farzand tug'ilavergach, agar u 2 tadan ohsa, keyingilariga o'g'il tushunchasi bilan bog'liq ismlarni qo'yish boshlanadi. Gender muvozanat nafaqat maishiy masalada balki ijtimoiy mavqe, daraja, g'urur bilan bog'liq kechinmalarda ham o'z aksini topadi. Shuningdek, nafaqat otalar, balki onalar ham o'g'il farzand ko'rganda bir pog'ona ko'tarilgandek, o'zlarini boshqalardan ustun bo'lgandek his etishni boshlaydi. Chunki o'g'il himoyachi, o'g'il jangchi, boquvchi, suyanch sifatida idrok etiladi. Bu esa G.E.Gryunebaumning mulohazalarini eslatadi: "Johiliyat davrida, ya'ni Islomgacha Arabiston yarim oroli aholisi o'rtasida ayolning hech qanday o'zni ham, qadr-qimmatini ham yo'q edi. Bu holat farzandning tug'ilishidan boshlanardi. Oilada o'g'il bola dunyoga kelsa, sevinishar, xursandchiliklar qilishar, qiz tug'lsa esa oilada motamsarolik hukm surib, tezda farzandni yo'qotish payiga tushishar edi. Ayolning eri oldidagi qadri erining molichalik emasdi. Johiliyat zamonida arab erkaklari ayol bilan bir xonada o'tirishmas, birga ovqatlanmasdilar. U davrda arablar uch narsada: otada, ayolda, uyda xosiyat yo'q, deb ishonishardi<sup>1</sup>

Bu ibtidoiy qarashlarning kichik elementlari yillar o'tsada qondan qonga o'tib, ulkan davrni bosib o'tib bizga qadar yetib kelganligini ayrim hududlarda qo'yilayotgan ismlardan anglash mumkin. So'zning kuchi, uning psixologik ta'siri o'g'il tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan ismga ega qizlar esa o'g'il bola xarakter-xususiyatlarini beixtiyor o'zlarida mujassam etadi. Ehtimol, hanuzgacha chekka qishloqlarda; ma'naviy, ijtimoiy, psixologik, diniy ta'limotlar yetarli bo'lmagan joylarda shu kabi ismlar chaqaloqqa qo'yilib kelinmoqda. Masalan, E.Begmatovning o'zbek ismlari lug'atida O'g'il so'zi bilan boshlanuvchi 53 ta ism keltiriladi. *Bu qutli qizdan keyingisi o'g'il bo'lsin; oliy nasabli bu qizdan keyingisi o'g'il bo'lsin; bu qizdan keyin o'g'il bersin, Alloh o'g'il ato qilsin; ushbu e'zozli qizdan keyingisi o'g'il bo'lsin; bozor kuni tug'ilgan bu qizdan keyingi farzand o'g'il bo'lsin* kabi izohlar bilan **O'g'ilbaxt, O'g'ilbegi, O'g'ilbeka, O'g'ilbersin, O'g'ilbibi** singari ismlar lug'at tarkibidan o'rin oladi.

<sup>1</sup> Грюнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерк истории (660-1258). М.: 1986. С.13.



## MUHOKAMA VA NATIJALAR (Discussion and results)


Inson xulq-atvorining o‘ziga xosligi, ijtimoiy jins sifatida shakllanishi uning tug‘ilganida olajak ismlari bilan muayyan darajada bog‘liq ekan, jamiyatda “erkaklarga xos” yoki “ayollarga xos” xususiyati bilan o‘zi va boshqalar ongi ostidagi tasavvurda me‘yoriy holga aylanib boradi. Bu tasavvur o‘zbekona shashti baland, jangovar ruhli, jo‘shqin xarakterli, chavandoz, so‘zi o‘tkir To‘maris, Barchinoylar yurtiga yarashadigan xislat sifatida qaror topadi. “Kishilar o‘z jinsiga muvofiq ijtimoiylashuvda madaniy muhit katta rol o‘ynaydi. Zero, madaniy muhitgina erkak va ayolning qanday bo‘lishi lozimligini taqoza etadi”.<sup>2</sup>

Ism qo‘yishdagi ikkinchi munosabat – tug‘ilgan farzandni oldinroq o‘lgan farzand bilan solishtirish, tenglashtirish yoki mavqeini tushirish (balki ko‘tarish) o‘qibatida paydo bo‘lgan qarashlar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yuqoridagi munosabatlardan ham ko‘ra xunukroq, qo‘polroq va yoqimsizroq vaziyatni yuzaga keltiradi. Zero, birovning evaziga, o‘zidan olidingi farzandni doimo, butun umr, hayoti davomida eslatib turadigan ismi bor har qanday odam ham o‘zining shaxs sifatidagi kechinma va tuyg‘ularini ocha olmay, kimdir uchun, ko‘proq, ota-ona uchun, nobud bo‘lgan, tug‘ilgan qolgan farzand dog‘ini eslatib turuvchi tamg‘a, o‘tib ketgan o‘sha farzandning soyasidagi, fonidagi, xotirasidagi imzo sifatida yashaydi. Ehtimol, ism egasi mazkur narsalar haqida o‘ylamas, biroq bir umr kemptik yashashi, kimgadir o‘zini tanishtirganda, bir soniya bo‘lsada, o‘z ismining tarixini eslashi, suhbatdoshning unga bo‘lgan munosabatini ong ostida tasavvur qilishi orqali o‘zini yetarlicha namoyon qila olmaydi. Bular “O‘rin” so‘zi bilan boshlanuvchi ismlarga ham tegishlidir. O‘zbek ismlari lug‘atida shunday ismlar 17 tani tashkil etadi. Bu esa O‘ bilan boshlanuvchi ismlarning 8% idir. *O‘rinbadal, O‘rinbosar, O‘rinxol, O‘ringul, O‘rintosh, O‘rinqo‘zi* kabi imlar “oldingi vafot etgan bolalar evaziga, o‘rniga kelgan bola; avvalgi turmagan bolalar evaziga berilgan bola” izohlari bilan tavsiflanadi.

<sup>2</sup> Ўразалиева Г. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. Тошкент: 2009. – 136 б.

Uchinchi xil munosabat o‘zbeklarning turmush tarzini o‘zgartirishga intilishdan paydo bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Odatda farzand tug‘ilganda xarajatlar ko‘payadi, mas’uliyat oshadi va tug‘ilgan boladan umid qilinadi. Kishining yomon kunlar bilan emas yaxshi kunlar bilan bog‘liq ismi muloqot samarasini oshirishi ilmiy tahlil qilinishi kerak. Chunonchi, o‘zbek ismlari qatorida **O‘nglasin** (o‘z. – Alloh ishimizni o‘nglasin), **O‘lpon** (o‘z. — o‘tmishda yer solig‘i), **O‘gshuk** (o‘z. qad.t. – tuyaning bir xili, 2 yoshli tuya) kabi ismlar ham borki, shu ism egalari nimaningdir evaziga, nima uchundir qarzdor bo‘lib yashashga majburdek.

Ijobiy kayfiyatni uyg‘otuvchi, “o” bilan boshlanuvchi ismlar qatoriga tarkibida



**O‘roz** so‘zi mavjud ismlarni qo‘shish mumkin. Bu ro‘za oyi bilan bog‘liq ismlar turkumi bo‘lib, yaxshilik bag‘ishlovchi, xurchandchilik ato etuvchi muhitni, ijobiy kommunikativ sharoitni yaratishi bilan ahamiyatli. O‘zbek ismlari lug‘atida mazkur ismlar 37 xil ko‘rinishga ega. Biroq bu variatsiyalar jonli bo‘lmog‘i, lug‘at tarkibida uning faqat o‘zak qismi qolmog‘i darkor. Zero, lug‘at kishi ongini bir qolipga solib qo‘yishi, ijodkorlik xususiyatini so‘ndirib qo‘yishi mumkin.

### **XULOSA (Conclusion)**

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, milliy tafakkur millat ruhini yo ko‘tarishga, yoki tushirishga xizmat qilar ekan, tug‘ilajak bolalarga mazmun-mohiyati bolaning kelajagiga ta’sir qilishini inobatga olib ko‘taringki ismlarni qo‘yishimiz kerak. Buning uchun esa, xalqimiz ongini ma’naviy-ma’rifiy, diniy-axloqiy, psixologik, ijtimoiy-siyosiy, lingvokulturologik bilimlar bilan boyitish chorasini izlash siyosiy tus olmog‘i darkor. Shundagina millatimiz tafakkurida gender



ustunliklar, farzand ajratishlar kamayadi, buning oqibatida esa ismlarni to‘g‘ri qo‘yilishiga erishiladi. “Jamiyatda muayyan jins rollarining bajarilishini taqozo etadigan xatti-harakatlarning me‘yoriy tizimi vujudga keladi”<sup>3</sup>.

## REFERENCES

1. Kadirova, X. B. (2022). O ‘ZBEK ISMLARNING LEKSIKOLOGIK, LEKSIKOGRAFIK VA LINGVOKULTUROLOGIK MUAMOLARI. *Ta’lim fidoyilari*, 4, 100-104.
2. Kadirova, X. B. (2023). O ‘ZBEK ISMLARINING LEKSIK-SEMANTIK MUAMMOLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 445-451.
3. Kadirova, X. (2022). O‘ZBEK ISMLARIDA EVFEMIZATSIYA VA UNING DISFEMIZATSIYALASHUVIGA OID MUAMMOLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 808-819.
4. O‘razalieva G. Gender va ayollar huquqiy madaniyati. Toshkent: 2009. – 136 b.
5. Грюнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерк истории (660-1258). М.: 1986.

<sup>3</sup> Ўразалиева Г. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. Тошкент: 2009. – 136 б.